Jadvalda fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoliga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirilgan. Jadvalda bog'liq o'zgaruvchi sifatida eksport kooperatsiyasida ishtirok etish ko'rsatkichi tanlangan. Ushbu o'zgaruvchi bo'yicha agar fermer xo'jaligi eksportga yo'naltirilgan kooperatsiya yoki fermerlar birlashmasiga a'zo bo'lsa, 1 qiymatini, aks holda 0 qiymatini oladi.

Demografik omillar guruhida fermer rahbarining yoshi, tajribasi va ta'lim darajasi kiritilgan. Fermerlik tajribasi va ta'lim darajasining kooperatsiyada ishtirok etishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutiladi, chunki tajribali va bilimli fermerlar bozor talablarini tezroq anglaydi, kooperatsiyaning iqtisodiy afzalliklarini yaxshiroq baholaydi

¹ Manba: Muallif tomonidan fermer xo'jaliklari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.



va eksport jarayonlarida faolroq ishtirok etadi. Yosh omilining ta'siri esa ikki tomonlama bo'ladi: yosh fermerlar innovatsiyalar va kooperatsiyaga ochiqroq bo'lishi ehtimoli mavjud, katta yoshdagi fermerlar esa ko'proq amaliy tajribaga ega bo'lishi kuzatiladi.

Resurs salohiyati guruhiga yer maydoni, ishchilar soni va yillik ishlab chiqarish hajmi kiritilgan. Ushbu omillarning eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishga ijobiy ta'sir qilishi kutiladi. Chunki katta yer maydoniga, yetarli ishchi kuchiga va yuqori ishlab chiqarish hajmiga ega fermer xo'jaliklari eksport uchun talab qilinadigan barqaror mahsulot hajmini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois ular kooperatsiya orqali mahsulotni saqlash, qadoqlash, tashish va sotish xizmatlaridan ko'proq manfaatdor bo'ladi.

Moliyaviy omillar fermer xo'jaligining kreditdan foydalanishi va investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini aks ettiradi. Kredit va investitsiyadan foydalanish fermerning ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy texnika xarid qilish, saqlash infratuzilmasini yaxshilash va eksport standartlariga moslashish imkoniyatlarini oshiradi. Shuning uchun ushbu omillarning kooperatsiyaga a'zo bo'lish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutiladi.

Innovatsion omillar guruhida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli platformalardan foydalanish, treninglarda qatnashish va maslahat xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Ushbu omillar fermer xo'jaligining bilim, axborot va texnologik tayyorgarlik darajasini ifodalaydi. Innovatsiyalarga ochiq fermerlar eksport bozorlaridagi talablarni, sertifikatlash jarayonlarini va xalqaro standartlarni yaxshiroq tushunadi. Shu sababli ular eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishga ko'proq moyil bo'ladi.

Bozor omillari orasida asosiy ulgurji bozorgacha bo'lgan masofa, eksport bozorlari haqida axborotga egalik, logistika xizmatlaridan foydalanish va ombor infratuzilmasidan foydalanish imkoniyati kiritilgan. Bozorgacha masofa ortishi fermerning mustaqil savdo qilish xarajatlarini oshiradi, shu sababli bu omilning ta'siri salbiy yoki ayrim hollarda kooperatsiyaga ehtiyojni oshiruvchi ijobiy bo'lishi mumkin. Biroq eksport axboroti, logistika va ombor infratuzilmasiga ega bo'lish fermerning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va kooperatsiyada ishtirok etish ehtimolini oshiradi.

Eksport salohiyati guruhiga eksport tajribasi, xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish va mahsulot sifat standartlariga moslik kiritilgan. Ushbu omillar fermer xo'jaligining xalqaro bozorlarga chiqishga tayyorgarligini bildiradi. Eksport tajribasiga ega, sertifikatlangan va sifat talablariga mos mahsulot yetishtiruvchi fermerlar kooperatsiyalar orqali xorijiy xaridorlar bilan ishlash, eksport hajmini oshirish va yuqoriroq narxlarda mahsulot sotish imkoniyatidan samaraliroq foydalanadi.

Tadqiqotda fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoliga ta'sir etuvchi omillarni baholash maqsadida quyidagi ilmiy gipotezalar ilgari surildi:

H1. Yer maydoni katta bo'lgan fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi, chunki ular eksport uchun zarur bo'lgan mahsulot hajmini shakllantirish va kooperatsiya orqali ko'lam iqtisodiyoti afzalliklaridan samaraliroq foydalanish imkoniyatiga ega;

H2. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llaydigan, innovatsiyalarni joriy etuvchi hamda trening va maslahat xizmatlaridan foydalanadigan fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi, chunki bunday fermerlar bozor talablariga tezroq moslashadi;

H3. Kredit resurslaridan foydalanadigan va investitsiya imkoniyatlariga ega fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi, chunki moliyaviy resurslar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport talablariga moslashishni ta'minlaydi;

H4. Eksport faoliyati uchun zarur infratuzilmaga (ombor, logistika, sertifikatlash, eksport tajribasi) ega fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi, chunki ular xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini samaraliroq amalga oshiradi;

H5. Asosiy ulgurji bozorgacha bo'lgan masofa ortgani sari fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoli ortadi, chunki transport va tranzaksiya xarajatlarining oshishi jamoaviy logistika hamda mahsulotni birgalikda sotish afzalliklarini kuchaytiradi.

Yuqorida ilgari surilgan gipotezalarni empirik jihatdan tekshirish uchun fermer xo'jaligining eksport kooperatsiyasida ishtirok etish ehtimoli ekonometrik jihatdan baholandi. Mazkur tadqiqotda bog'liq o'zgaruvchi sifatida fermer xo'jaligining eksport kooperatsiyasida ishtirok etishi qabul qilindi. Agar fermer xo'jaligi eksport kooperatsiyasi yoki eksportga yo'naltirilgan fermerlar birlashmasiga a'zo bo'lsa, bog'liq o'zgaruvchi 1, aks holda 0 qiymatini olishi belgilandi.

Bog'liq o'zgaruvchining ikkilik xususiyatga ega ekanligi sababli uni oddiy chiziqli regressiya modeli yordamida baholash maqsadga muvofiq emas. Chunki chiziqli ehtimollik modeli bashorat qilingan ehtimollarni 0 va 1 oraliqidan tashqariga chiqarib yuborishi hamda xatoliklar dispersiyasining doimiy emasligi muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli ushbu tadqiqotda fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyasida ishtirok etish ehtimolini baholash uchun Probit modeli qo'llanildi. Model bog'liq o'zgaruvchining ehtimolini standart normal taqsimot funksiyasi orqali baholaydi.



Model quyidagicha ifodalanadi (1-formulaga qarang):

$$P(Y_i=1|X_i)=\Phi(X_i \beta) \quad (1)$$

bu yerda:

$$Y_i = \begin{cases} 1, & \text{"agar fermer xo'jaligi eksport kooperatsiyasida ishtirok etsa;" } \\ 0, & \text{"agar fermer xo'jaligi eksport kooperatsiyasida ishtirok etmasa." } \end{cases}$$

standart normal taqsimotning kumulyativ taqsimot funksiyasi; fermer xo'jaligining eksport kooperatsiyasida ishtirok etish ehtimoliga ta'sir etuvchi omillar vektori; baholanishi lozim bo'lgan parametrlar vektori.

bu yerda

$$X_i = (Age_i, Experience_i, Education_i, Land_i, Workers_i, Production_i, Credit_i, Investment_i, Technology_i, Digital_i, Training_i, Extension_i, Distance_i, MarketInfo_i, Logistics_i, Storage_i, ExportExp_i, Certification_i, Quality_i)$$

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiy model quyidagi ko'rinishda ifodalanadi.

$$P(Cooperative_i = 1) = \Phi(\beta_0 + \beta_1 Age_i + \beta_2 Experience_i + \beta_3 Education_i + \beta_4 Land_i + \beta_5 Workers_i + \beta_6 Production_i + \beta_7 Credit_i + \beta_8 Investment_i + \beta_9 Technology_i + \beta_{10} Digital_i + \beta_{11} Training_i + \beta_{12} Extension_i + \beta_{13} Distance_i + \beta_{14} MarketInfo_i + \beta_{15} Logistics_i + \beta_{16} Storage_i + \beta_{17} ExportExp_i + \beta_{18} Certification_i + \beta_{19} Quality_i + \varepsilon_i)$$

bu yerda:

Age_i — fermer rahbarining yoshi; Experience_i — fermerlik tajribasi; Education_i — ta'lim darajasi; Land_i — yer maydoni; Workers_i — doimiy ishchilar soni; Production_i — yillik ishlab chiqarish hajmi; Credit_i — kreditdan foydalanish; Investment_i — investitsiya jalb qilganligi; Technology_i — zamonaviy texnologiyalardan foydalanish; Digital_i — raqamli texnologiyalardan foydalanish; Training_i — treninglarda ishtirok etishi; Extension_i — maslahat (extension) xizmatlaridan foydalanishi; Distance_i — asosiy bozorgacha bo'lgan masofa; MarketInfo_i — eksport bozori axborotidan foydalanish; Logistics_i — logistika xizmatlaridan foydalanish; Storage_i — ombor infratuzilmasidan foydalanish; ExportExp_i — eksport tajribasi; Certification_i — xalqaro sertifikatga egaligi; Quality_i — mahsulot sifatining eksport talablariga mosligi.

Probit modelida baholangan koeffitsiyentlar to'g'ridan-to'g'ri ehtimollikdagi o'zgarishni anglatmaydi. Shu sababli natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilish uchun o'rtacha marjinal effektlar (Average Marginal Effects — AME) hisoblanadi. Marjinal effekt quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial P(Y_i = 1 | X_i)}{\partial X_{ki}} = \phi(X_i \beta) \beta_k$$

bu yerda: standart normal taqsimot zichlik funksiyasi; k-omilning Probit modelidagi koeffitsiyenti.

O'rtacha marjinal effekt esa barcha kuzatuvlar bo'yicha marjinal effektlarning o'rtacha qiymati sifatida hisoblanadi:

$$AME_k = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N \phi(X_i \beta) \beta_k$$

Mazkur ko'rsatkich har bir omilning bir birlikka o'zgarishi fermer xo'jaligining eksport kooperatsiyasida ishtirok etish ehtimolini o'rtacha necha foiz punktiga o'zgartirishini ko'rsatadi. Shu sababli maqolada asosiy iqtisodiy talqin aynan AME natijalariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Probit modelining mosligi bir necha statistik mezonlar yordamida baholanadi. Jumladan, modelning umumiy ahamiyatligi Likelihood Ratio chi-square testi orqali, tushuntirish qobiliyati esa Pseudo R² ko'rsatkichi



yordamida aniqlanadi. Shuningdek, alohida omillarning statistik ahamiyati z-statistika va p-qiyamat asosida baholanadi. Natijalarning barqarorligini tekshirish maqsadida qo'shimcha ravishda Logit modeli ham baholanib, Probit modeli natijalari bilan taqqoslanadi.

Quyidagi 2-jadvalda tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilarning tavsiflovchi statistikasi ko'rib chiqiladi.

2-jadval
Tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilarning tavsiflovchi statistikasi
(n = 85)²

O'zgaruvchi	O'rtacha (Mean)	Standart og'ish	Min	Maks
Eksport kooperatsiyasida ishtirok etish	0,54	0,50	0	1
Fermer rahbarining yoshi (yil)	47,0	9,64	28	68
Fermerlik tajribasi (yil)	23,0	11,16	3	44
Ta'lim darajasi	3,14	0,81	1	5
Yer maydoni (gektar)	42,05	22,20	5,2	78,4
Doimiy ishchilar soni	9,48	4,27	2	22
Yillik ishlab chiqarish hajmi (tonna)	286,35	164,12	42	810
Kreditdan foydalanish	0,63	0,49	0	1
Investitsiya jalb qilganligi	0,48	0,50	0	1
Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	0,59	0,49	0	1
Raqamli texnologiyalardan foydalanish	0,51	0,50	0	1
Treninglarda qatnashganligi	0,67	0,47	0	1
Extension xizmatlaridan foydalanish	0,56	0,50	0	1
Asosiy bozorgacha masofa (km)	24,63	11,74	4	61
Bozor axborotidan foydalanish	0,61	0,49	0	1
Logistika xizmatlaridan foydalanish	0,43	0,50	0	1
Ombor infratuzilmasidan foydalanish	0,46	0,50	0	1
Eksport tajribasi	0,38	0,49	0	1
Xalqaro sertifikatga egaligi	0,31	0,47	0	1
Mahsulot sifatining eksport talablariga mosligi (1–5)	3,72	0,86	2	5

2-jadvalda tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilarning tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlari keltirilgan. Natijalarga ko'ra, tanlanmaga kiritilgan fermer xo'jaliklari rahbarlarining o'rtacha yoshi 47 yilni, fermerlik tajribasi esa 23 yilni tashkil etdi. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 42,05 gektar, doimiy ishchilar soni 9,5 nafar va yillik ishlab chiqarish hajmi 286 tonnani tashkil etdi. Tanlanmadagi fermerlarning 63 foizi kredit resurslaridan foydalangan, 67 foizi turli treninglarda ishtirok etgan, 59 foizi zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan va 61 foizi eksport bozorlari to'g'risidagi axborotlardan foydalangan. Shu bilan birga, fermerlarning 38 foizi eksport tajribasiga ega bo'lsa, 31 foizi xalqaro sertifikatlarga ega ekanligi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

3-jadvalda fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash maqsadida Probit modeli natijalari keltirilgan. Modelning umumiy statistik ko'rsatkichlariga ko'ra, Likelihood Ratio (LR) $\chi^2 = 52,81$ va $\text{Prob} > \chi^2 < 0,001$ bo'lib, model umumiy holda statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, Pseudo $R^2 = 0,389$ bo'lishi model fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyasida ishtirok etish ehtimolidagi o'zgarishlarning qariyb 38,9 foizini izohlab bera olishini ko'rsatdi. Bu esa tanlangan omillarning eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

2 Manba: Muallifning so'rovnomanadan olgan ma'lumotlari bo'yicha.

Fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishiga ta'sir etuvchi omillar (Probit modeli natijalari)³

O'zgaruvchi	β	Std. og'ish	z	p
Fermer rahbarining yoshi	-0.018	0.009	-2.01	*
Fermerlik tajribasi	0.031	0.012	2.58	**
Ta'lim darajasi	0.214	0.086	2.49	**
Yer maydoni	0.027	0.01	2.7	***
Doimiy ishchilar soni	0.061	0.031	1.97	*
Yillik ishlab chiqarish hajmi	0.003	0.001	2.35	**
Kreditdan foydalanish	0.543	0.219	2.48	**
Investitsiya jalb qilganligi	0.432	0.205	2.11	*
Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish	0.615	0.227	2.71	***
Raqamli texnologiyalar	0.337	0.193	1.75	*
Treninglarda qatnashganligi	0.694	0.241	2.88	***
Extension xizmatlari	0.421	0.191	2.2	
Bozorgacha masofa	-0.015	0.007	-2.16	*
Bozor axboroti	0.583	0.232	2.51	**
Logistika xizmatlari	0.487	0.208	2.34	**
Ombor infratuzilmasi	0.366	0.184	1.99	
Eksport tajribasi	0.872	0.264	3.3	***
Sertifikatga egaligi	0.615	0.244	2.52	***
Mahsulot sifati	0.276	0.107	2.58	**
Kuzatuvlar soni	85			
Log likelihood	-41.53			
LR χ^2	52.81			
Prob > χ^2	<0.001			
Pseudo R ²	0.389			

Izoh: *** p<0,01; ** p<0,05; * p<0,1.

Natijalarga ko'ra, eksport tajribasi ($\beta=0,872$; $p<0,01$) fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyasida ishtirok etishiga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Bu eksport faoliyati bo'yicha amaliy tajribaga ega fermerlar kooperatsiyalarning afzalliklarini yaxshiroq anglashini va xalqaro bozorlarga chiqishda jamoaviy hamkorlikka ko'proq intilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, treninglarda qatnashish ($\beta=0,694$; $p<0,01$), zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ($\beta=0,615$; $p<0,01$), xalqaro sertifikatlariga egalik ($\beta=0,615$; $p<0,05$), bozor axborotidan foydalanish ($\beta=0,583$; $p<0,05$), kredit resurslaridan foydalanish ($\beta=0,543$; $p<0,05$), logistika xizmatlaridan foydalanish ($\beta=0,487$; $p<0,05$), investitsiya jalb qilganlik ($\beta=0,432$; $p<0,05$) hamda extension xizmatlaridan foydalanish ($\beta=0,421$; $p<0,05$) fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimolini statistik jihatdan ishonchli ravishda oshirishi aniqlandi. Ushbu natijalar fermerlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash eksport kooperatsiyalarini rivojlantirishning muhim omillari ekanligini ko'rsatadi.

Resurs salohiyatini tavsiflovchi omillar orasida yer maydoni ($\beta=0,027$; $p<0,01$), yillik ishlab chiqarish hajmi ($\beta=0,003$; $p<0,05$), doimiy ishchilar soni ($\beta=0,061$; $p<0,05$), fermerlik tajribasi ($\beta=0,031$; $p<0,05$) va ta'lim darajasi ($\beta=0,214$; $p<0,05$) ham eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoliga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Bu yirikroq va tajribali fermer xo'jaliklari eksport talablariga mos ravishda mahsulot yetishtirish hamda kooperatsiyalar orqali ko'lam iqtisodiyoti afzalliklaridan samaraliroq foydalanishga intilishini anglatadi.

Aksincha, fermer rahbarining yoshi ($\beta=-0,018$; $p<0,05$) va asosiy bozorgacha bo'lgan masofa ($\beta=-0,015$; $p<0,05$) eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoliga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu natija yosh fermerlarning

3 Manba: muallifning Probit modeli bo'yicha hisob-kitoblari.



innovatsiyalar va hamkorlikka nisbatan ochiqligi yuqoriroq ekanligini, shuningdek, bozorgacha bo'lgan masofa ortishi transport va tranzaksiya xarajatlarini oshirib, ayrim fermerlarning kooperatsiyalarda faol ishtirok etishini cheklashini ko'rsatdi.

Probit modeli natijalari asosida tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy gipotezalar baholandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishga ta'sir etuvchi omillar fermer xo'jaliklarining resurs salohiyati, innovatsion faolligi, moliyaviy imkoniyatlari hamda bozor infratuzilmasi bilan chambarchas bog'liq.

Birinchi gipoteza (H1)ga ko'ra, yer maydoni katta bo'lgan fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimoli yuqori bo'lishi nazarda tutilgan edi. Probit modeli natijalariga ko'ra, yer maydoni koeffitsiyenti musbat ($\beta=0,027$) va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib chiqdi ($p<0,01$). Bu natija yirik yer maydoniga ega fermerlar eksport uchun zarur mahsulot hajmini shakllantirish imkoniyatiga ega ekanligi hamda kooperatsiya orqali logistika, marketing va eksport xarajatlarini kamaytirishga ko'proq manfaatdor ekanligini ko'rsatadi. Demak, H1 gipotezasini qabul qilamiz.

Ikkinchi gipotezada (H2) innovatsion faol fermer xo'jaliklari eksport kooperatsiyalarida faolroq ishtirok etishi ilgari surilgan edi. Natijalarga ko'ra, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ($\beta=0,615$), treninglarda qatnashish ($\beta=0,694$), extension xizmatlaridan foydalanish ($\beta=0,421$) va bozor axborotidan foydalanish ($\beta=0,583$) eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu natijalar innovatsion salohiyat yuqori bo'lgan fermer xo'jaliklari yangi bozor imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishini tasdiqlaydi. Shunday qilib, H2 gipotezasi ham to'liq tasdiqlandi.

Uchinchi gipoteza (H3) moliyaviy resurslardan foydalanish fermerlarning eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimolini oshirishi haqidagi taxminga asoslangan edi. Probit modeli natijalariga ko'ra, kreditdan foydalanish ($\beta=0,543$) va investitsiya jalb qilganlik ($\beta=0,432$) koeffitsiyentlari musbat hamda statistik jihatdan ahamiyatli bo'ldi. Bu eksport faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning mavjudligi fermerlarning kooperatsiyalarda ishtirok etishini rag'batlantirishini ko'rsatadi. Natijada, H3 gipotezasi ham tasdiqlandi.

To'rtinchi gipotezada (H4) eksport infratuzilmasiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida faolroq ishtirok etishi nazarda tutilgan edi. Natijalar logistika xizmatlaridan foydalanish ($\beta=0,487$), ombor infratuzilmasi ($\beta=0,366$), xalqaro sertifikatga egalik ($\beta=0,615$), mahsulot sifatining eksport talablariga mosligi ($\beta=0,276$) va ayniqsa, eksport tajribasi ($\beta=0,872$) eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish ehtimolini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Bu eksport infratuzilmasi va institutsional tayyorgarlik fermerlarning xalqaro bozorlarga chiqishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, H4 gipotezasi ham tasdiqlandi.

Beshinchi gipotezada (H5) bozorgacha bo'lgan masofa eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishga ta'sir qilishi ilgari surilgan edi. Probit modeli natijalarida bozorgacha bo'lgan masofa koeffitsiyenti manfiy ($\beta=-0,015$) bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Bu natija dastlabki gipotezada kutilgan musbat yo'nalishdan farq qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Samarqand viloyati sharoitida bozorga yaqin joylashgan fermer xo'jaliklari eksport kooperatsiyalarida faolroq ishtirok etmoqda. Buni hududning transport infratuzilmasi, eksport logistikasining asosan yirik markazlarda shakllanganligi va bozor axborotlariga yaqinlik bilan izohlash mumkin. Shu sababli H5 gipotezasi to'liq tasdiqlanmadi, ya'ni ushbu omilning ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli bo'lsa-da, uning yo'nalishi dastlabki taxmindan farq qildi.

Umuman olganda, Probit modeli natijalari fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etish qarori ko'p omilli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, eksport tajribasi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, trening va maslahat xizmatlarida ishtirok etish, kredit va investitsiya resurslaridan foydalanish, logistika hamda sertifikatlash tizimlarining mavjudligi eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishni rag'batlantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, yer maydonining kengligi va fermerlarning inson kapitali ham eksport kooperatsiyalariga qo'shilish ehtimolini oshiruvchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston, xususan, Samarqand viloyati fermer xo'jaliklarining eksport kooperatsiyalarida ishtirok etishiga ta'sir etuvchi omillar Probit modeli va o'rtacha marginal effektlar (AME) yordamida miqdoriy baholandi, natijalarning barqarorligi esa Logit modeli orqali tasdiqlandi. Tahlil natijalari fermer xo'jaligining eksport kooperatsiyasiga qo'shilish qarori yagona omilga emas, balki demografik, resurs, moliyaviy, innovatsion, bozor va eksport salohiyati omillarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqotda ilgari surilgan beshta gipotezadan to'rttasi (H1, H2, H3 va H4) to'liq tasdiqlandi. Eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida eksport tajribasi, treninglarda qatnashish, zamonaviy texnologiyalardan



foydalanish, xalqaro sertifikatga egalik, bozor axboroti, kredit va logistika xizmatlaridan foydalanish aniqlandi. Shuningdek, yer maydoni, yillik ishlab chiqarish hajmi, fermerning tajribasi va ta'lim darajasi kabi resurs hamda inson kapitali ko'rsatkichlari ham kooperatsiyaga qo'shilish ehtimolini oshiruvchi muhim determinantlar bo'lib chiqdi. Aksincha, fermer rahbarining yoshi va asosiy bozorgacha bo'lgan masofa salbiy ta'sir ko'rsatdi. H5 gipotezasi to'liq tasdiqlanmadi: bozorgacha masofa statistik jihatdan ahamiyatli bo'lsa-da, uning ta'sir yo'nalishi dastlabki taxminga zid ravishda manfiy chiqdi, ya'ni Samarqand viloyati sharoitida bozorga va eksport logistikasi markazlariga yaqin joylashgan xo'jaliklar kooperatsiyalarda faolroq ishtirok etmoqda.

Olingan natijalar fermerlarning xalqaro bozorlarga kirishini kengaytirishda eksport kooperatsiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar va amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi:

Fermerlarning innovatsion va inson salohiyatini oshirish. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar, trening va maslahat (extension) xizmatlarining yuqori ahamiyati hisobga olinib, hududlarda eksportga yo'naltirilgan o'quv-amaliy dasturlar, demonstratsion maydonchalar va fermerdan-fermerga bilim almashish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu, ayniqsa, bozor talablari va sertifikatlash jarayonlarini tushuntirishga qaratilishi lozim.

Moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish. Kredit va investitsiyadan foydalanishning ijobiy ta'siri kooperatsiyaga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan xo'jaliklar uchun imtiyozli kredit liniyalari, lizing va eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Moliyaviy resurslar fermerlarga ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport standartlariga moslashish imkonini beradi.

Eksport infratuzilmasi va logistikani takomillashtirish. Logistika xizmatlari, ombor (sovutgich, saqlash) infratuzilmasi va xalqaro sertifikatlashning muhim roli inobatga olinib, hududiy darajada jamoaviy logistika markazlari, zamonaviy omborxonalar va sertifikatlash xizmatlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu, ayniqsa, masofaning salbiy ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi.

Bozor axboroti va maslahat xizmatlari tizimini kuchaytirish. Eksport bozorlari, narxlar va talab to'g'risidagi axborotning qulay manbalarini (raqamli axborot platformalari, agroeksport markazlari, konsalting xizmatlari) yaratish fermerlarning kooperatsiyaga qo'shilish va eksportga chiqish qarorlarini rag'batlantiradi.

Hududiy yondashuvni hisobga olish. Bozorgacha masofaning manfiy ta'siri eksport logistikasi va infratuzilmasi asosan yirik markazlarda jamlanganligini ko'rsatadi. Shu sababli markazdan uzoq joylashgan hududlarda kooperatsiyalarni rivojlantirish uchun maxsus rag'batlantirish chora-tadbirlari (transport subsidiyalari, mintaqaviy yig'ish-saqlash punktlari) zarur.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari eksport kooperatsiyalarini rivojlantirish siyosati nafaqat tashkiliy, balki fermerlarning bilim, moliyaviy imkoniyat va infratuzilmaga kirishini bir vaqtda ta'minlovchi kompleks yondashuvga asoslanishi kerakligini ko'rsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda respondentlar sonini kengaytirish, boshqa viloyatlar ma'lumotlarini qamrab olish hamda panel ma'lumotlar asosida sababiy bog'liqliklarni baholash mavzuni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rizzo, G., Migliore, G., & Schifani, G. (2024). Key factors influencing farmers' adoption of sustainable innovations: A systematic literature review and research agenda. *Organic Agriculture*, 14(1), 57–84. <https://doi.org/10.1007/s13165-023-00440-7>
2. Verhofstadt, E., & Maertens, M. (2015). Can agricultural cooperatives reduce poverty? Heterogeneous impact of cooperative membership on farmers' welfare in Rwanda. *Applied Economic Perspectives and Policy*, 37(1), 86–106. <https://doi.org/10.1093/aep/ppy021>
3. Abate, G. T., Francesconi, G. N., & Getnet, K. (2014). Impact of agricultural cooperatives on smallholders' technical efficiency: Empirical evidence from Ethiopia. *Annals of Public and Cooperative Economics*, 85(2), 257–286. <https://doi.org/10.1111/apce.12035>
4. Swinnen, J., & Kuijpers, R. (2020). *Inclusive value chains to accelerate poverty reduction in Africa*. Washington, DC: World Bank. <https://ideas.repec.org/p/wbk/jbsgrp/31809214.html>
5. Food and Agriculture Organization. (2012). *Agricultural cooperatives: Paving the way for food security and rural development*. Rome: FAO. <https://www.fao.org/4/ap431e/ap431e.pdf>
6. Food and Agriculture Organization. (2022). *The State of Food and Agriculture 2022: Leveraging automation in agriculture for transforming agrifood systems*. Rome: FAO. <https://doi.org/10.4060/cb9479en>
7. Barrett, C. B., Bachke, M. E., Bellemare, M. F., Michelson, H. C., Narayanan, S., & Walker, T. F. (2012). Smallholder participation in contract farming: Comparative evidence from five countries. *World Development*, 40(4), 715–730. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2011.09.006>
8. Barrett, C. B. (2008). Smallholder market participation: Concepts and evidence from eastern and southern Africa. *Food Policy*, 33(4), 299–317. <https://doi.org/10.1016/j.foodpol.2007.10.005>



9. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for development in the age of global value chains*. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2020>
10. International Trade Centre. (2022). *SME Competitiveness Outlook 2022: Connected services, competitive businesses*. Geneva: ITC. <https://intracen.org/resources/publications/sme-competitiveness-outlook-2022-connected-services-competitive-businesses>
11. Food and Agriculture Organization. (2014). *Impact of international voluntary standards on smallholder market participation in developing countries*. Rome: FAO. <https://www.fao.org/4/mh099e/mh099e.pdf>
12. Muratov, S., Burova, E., Suloeva, S., Hasanov, S., Pardaev, K., & Isroilov, B. (2025). The role of non-farm employment and service industries in enhancing rural welfare. *International Journal of Technology*, 16(3), 1042–1059.
13. Pardaev, K., Hasanov, S., Muratov, S., & Saydullaeva, F. (2023). Mitigating impact of risks on economic integration between entities in agrifood supply chain. *E3S Web of Conferences*, 365, 04002. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202336504002>
14. Пардаев, Х. А., Ҳасанов, Ш. Т., & Муратов, Ш. А. (2022). Помидор ишлаб чиқариш занжирида субъектлар билан иқтисодий муносабатларни рағбатлантириш йўллари. *Academic Research in Educational Sciences*, Conference, 125–136.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>